

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI**

KASBIY TA'LIM AGENTLIGI

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI



"TA'LIMDA BOSHQARUV"

kafedrasi

PSIXOLOGIK TESTOLOGIYA

fani bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTUR

Ta'lim turi:

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

**Tinglovchilar
toifasi**

Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar

TOSHKENT

Mazkur namunaviy o‘quv dasturi Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi na’munaviy o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

M.N.Muzaffarov

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası katta
o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

N.A.Roziqova

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,
P.f.f.d. (PhD)

A.Avliyakov

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası
professori.

I. TUSHUNTIRISH XATI

“Psixologik testologiya” fani psixologik diagnostika jarayonida qo‘llaniladigan testlarni yaratish, moslashtirish, standartlashtirish va amaliyotga tatbiq etishning nazariy hamda metodologik asoslarini o‘rgatishga qaratilgan. Mazkur fan talabalarda psixologik testlardan ilmiy asosda foydalanish, test natijalarini tahlil qilish va interpretatsiya etish bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o‘qitish jarayonida psixologik testologiyaning rivojlanish bosqichlari, testlarning turlari, ularni ishlab chiqish texnologiyasi, ishonchlilik va validlik ko‘rsatkichlari, standartlashtirish jarayonlari hamda baholash mezonlari o‘rganiladi. Shu bilan birga, talabalar psixologik testlarni amaliyotda qo‘llash, natijalarni statistik va psixologik jihatdan tahlil qilish, xulosalar chiqarish hamda etik tamoyillarga rioya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 23-iyulda “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-989-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-sentabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16-oktabrda “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyulda “Respublika oliy ta’lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5172-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26-fevralda “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son Qarori hamda Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur fan tinglovchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va amaliy mashg‘ulotlar asosida tashkil etilib, talabalarning mustaqil fikrlash, diagnostik faoliyatni samarali olib borish hamda kasbiy faoliyatda testologik metodlardan foydalanish malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Mazkur fanni o‘zlashtirish natijasida talabalar psixologik testlarni yaratish va qo‘llashning ilmiy-metodik asoslarini bilishi, psixologik diagnostika jarayonida test natijalarini to‘g‘ri tahlil qila olishi hamda professional etik me‘yorlarga amal qilgan holda faoliyat yurita olish kompetensiyalariga ega bo‘ladilar

Ushbu o‘quv fanida tinglovchining o‘quv yuklamasi 18 soat bo‘lib, shundan:

Jami auditoriya o‘quv yuklamasi	- 18 soat
Jumladan:	
Nazariy mashg‘ulotlar	- 6 soat
Amaliy mashg‘ulotlar	- 6 soat
Labaratoriya mashg‘ulotlar	- 6 soat

II. FANNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Fan nomi: Psixologik testologiya.

2.2. Fan maqsadi: Talabalarda psixologik testlarni yaratish, moslashtirish, standartlashtirish, o‘tkazish va natijalarini ilmiy asosda tahlil qilish bo‘yicha nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish. Shuningdek, psixologik diagnostika jarayonida testologiyaning metodologik asoslari, ishonchlilik, validlik, baholash mezonlari va etik tamoyillarni qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirish.

2.3. Tinglovchilar ushbu fanni o‘rganish natijasida milliy malaka tizimiga taalluqli quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:

Bilim	Ko‘nikma	Kompetensiya
Psixologik testologiyaning nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari.	Psixologik testlarni tanlash va qo‘llay oladi.	Psixologik diagnostika jarayonida testlardan samarali foydalanadi.
Psixologik testlarning turlari va ularning qo‘llanish sohalari.	Test topshiriqlarini ishlab chiqadi va moslashtira oladi.	Testlarni amaliyotga mos ravishda qo‘llash kompetensiyasiga ega bo‘ladi.
Testlarning ishonchliligi va validligi haqidagi tushunchalar.	Test natijalarini tahlil qilish va interpretatsiya qila oladi.	Psixologik baholash natijalarini ilmiy asosda xulosa qilishda qo‘llaydi.
Psixologik diagnostikaning metodologik tamoyillari.	Diagnostika jarayonini rejalashtirish va tashkil eta oladi.	Diagnostika jarayonida metodik yondashuvlarni samarali qo‘llaydi.
Testlarni standartlashtirish va normallashtirish usullari.	Testlarni standart talablar asosida o‘tkaza oladi.	Test natijalarining obyektivligini ta‘minlashda foydalanadi.
Psixologik testlarni o‘tkazishda etik me‘yorlar va tamoyillar.	Test jarayonida etik va psixologik normalarga rioya qila oladi.	Kasbiy faoliyatda etik me‘yorlarga amal qiladi.
Statistik tahlilning asosiy usullari va natijalarni qayta ishlash	Test natijalarini statistik jihatdan qayta ishlay oladi.	Tahlil natijalarini amaliy qaror qabul qilishda qo‘llaydi.

metodlari.		
Zamonaviy psixologik testlar va raqamli diagnostika texnologiyalari.	Kompyuterlashtirilgan test dasturlaridan foydalana oladi.	Zamonaviy texnologiyalar asosida diagnostika jarayonini tashkil etadi.

Fan bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			Mustaqil ta'lim
			Jami	Jumladan		
				Nazariy	Amaliy	Lab arat oriy a
1	Psixologik testlarni yaratish, moslashtirish, standartlashtirish va amaliyotda qo'llashning nazariy hamda metodologik asoslari.	2	2	2		
2	Fan doirasida testologiyaning rivojlanish bosqichlari, test turlari, ularning tuzilishi va qo'llanilish sohasi.	4	4	4		
3	Psixometrik ko'rsatkichlar, jumladan validlik, ishonchlilik, reprezentativlik, standartlashtirish, normallashtirish va test natijalarini baholash mezonlari.	2	2		2	
4	Yangi testlarni ishlab chiqish bosqichlari, mavjud metodikalarni adaptatsiya qilish, ekspertiza o'tkazish hamda test natijalarini interpretatsiya qilish.	4	4		4	
5	Psixologik testlardan ta'lim, kasb tanlash, kadrlar saralash va psixologik maslahat jarayonida foydalanish imkoniyatlari.	6	6			6
	Jami:	18	18	6	6	6

III. FAN BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

1-mavzu: Psixologik testlarni yaratish, moslashtirish, standartlashtirish va amaliyotda qo'llashning nazariy hamda metodologik asoslari. Psixologik testologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Psixologik testlarning paydo bo'lish tarixi va rivojlanish bosqichlari. Psixologik testlarning turlari, tuzilishi va qo'llanish sohalari. Test topshiriqlarini ishlab chiqish prinsiplari va metodlari. Psixologik testlarni yaratish jarayonining bosqichlari.

Testlarni moslashtirish va adaptatsiya qilishning ilmiy asoslari. Standartlashtirish, normallashtirish, validlik va ishonchlilik tushunchalari hamda ularni aniqlash usullari. Psixologik diagnostikada statistik tahlil usullaridan foydalanish. Test natijalarini qayta ishlash, interpretatsiya qilish va xulosa chiqarish tamoyillari.

Psixologik testlarni amaliyotda qo'llashning metodologik asoslari. Ta'lim, tibbiyot, kasbiy tanlov va psixologik maslahat jarayonlarida testlardan foydalanish imkoniyatlari. Testlarni o'tkazishda etik me'yorlar va kasbiy talablar. Zamonaviy kompyuterlashtirilgan va raqamli test tizimlari hamda ularning afzalliklari.

2-mavzu: Fan doirasida testologiyaning rivojlanish bosqichlari, test turlari, ularning tuzilishi va qo'llanilish sohasi. Psixologik testologiyaning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish. Testologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar va ularning ilmiy qarashlarini o'rganish. Psixologik testlarning asosiy turlari: intellekt testlari, shaxs testlari, qobiliyat testlari, proyektiv testlar va so'rovnomalar bilan ishlash.

Testlarning tuzilishi, tarkibiy qismlari va topshiriq shakllarini amaliy tahlil qilish. Test savollarini ishlab chiqish, ularni guruhlash va baholash mezonlarini aniqlash bo'yicha mashqlar bajarish. Turli sohalarda — ta'lim, tibbiyot, kasbiy tanlov va psixologik maslahat jarayonlarida qo'llaniladigan testlarni solishtirish va tahlil qilish.

Amaliy mashg'ulot davomida test namunalarini ko'rib chiqish, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash hamda testlarni qo'llash bo'yicha xulosalar ishlab chiqish.

3.2. Amaliy mashg'ulot mazmuni

3-mavzu: Psixometrik ko'rsatkichlar, jumladan validlik, ishonchlilik, reprezentativlik, standartlashtirish, normallashtirish va test natijalarini baholash mezonlari. Psixologik testlarning asosiy psixometrik ko'rsatkichlarini amaliy tahlil qilish. Validlik va uning turlari (mazmuniy, konstruktiv, mezoniy validlik)ni aniqlash usullari bilan ishlash. Testlarning ishonchlilik darajasini

baholash hamda qayta test, parallel shakllar va ichki moslik usullarini qo'llash bo'yicha mashqlar bajarish.

Reprezentativlik tushunchasi va tanlanma shakllantirish tamoyillarini o'rganish. Testlarni standartlashtirish va normallashtirish jarayonlarini amaliy misollar asosida tahlil qilish. Psixologik test natijalarini qayta ishlash, statistik ko'rsatkichlarni hisoblash va baholash mezonlarini aniqlash bo'yicha topshiriqlar bajarish.

Amaliy mashg'ulot davomida test natijalarini interpretatsiya qilish, xulosa chiqarish va diagnostik tavsiyalar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish

4-mavzu: Yangi testlarni ishlab chiqish bosqichlari, mavjud metodikalarni adaptatsiya qilish, ekspertiza o'tkazish hamda test natijalarini interpretatsiya qilish. Yangi psixologik testlarni yaratish bosqichlarini amaliy o'rganish. Test maqsadini belgilash, topshiriqlar bazasini ishlab chiqish, savollarni shakllantirish va baholash mezonlarini yaratish bo'yicha mashqlar bajarish. Test topshiriqlarining mazmuni va tuzilishini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish usullarini qo'llash.

Mavjud psixologik metodikalarni adaptatsiya qilish jarayonlari bilan ishlash. Testlarni til, madaniyat va yosh xususiyatlariga moslashtirish tamoyillarini amaliy misollar asosida tahlil qilish. Ekspertiza o'tkazish, mutaxassislar fikrini yig'ish va test sifatini baholash mezonlarini aniqlash bo'yicha topshiriqlar bajarish.

Test natijalarini qayta ishlash, interpretatsiya qilish va xulosa chiqarish usullarini qo'llash. Diagnostik natijalar asosida tavsiyalar ishlab chiqish hamda amaliy vaziyatlarda psixologik testlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

3.2. Laboratoriya mashg'uloti mazmuni

5-mavzu: Psixologik testlardan ta'lim, kasb tanlash, kadrlar saralash va psixologik maslahat jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Psixologik testlarni turli amaliy sohalarda qo'llash bo'yicha laboratoriya ishlari bajarish. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi va individual xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan test metodikalarini qo'llash. Test natijalarini tahlil qilish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

Kasb tanlash jarayonida kasbiy yo'naltirish testlari bilan ishlash, shaxsning kasbiy moyilligi va qobiliyatlarini baholash usullarini amalda qo'llash. Kadrlar saralashda psixologik testlardan foydalanish, nomzodlarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini aniqlash hamda natijalarni solishtirish bo'yicha laboratoriya topshiriqlarini bajarish.

Psixologik maslahat jarayonida diagnostik testlarni o'tkazish, natijalarni interpretatsiya qilish va psixologik xulosa tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Laboratoriya mashg'uloti davomida zamonaviy kompyuterlashtirilgan test dasturlari va raqamli diagnostika vositalaridan foydalanish usullarini o'rganish.

IV. NAZORAT SAVOLLARI

1. Psixologik testologiya fanining predmeti va vazifalari nimalardan iborat?
2. Psixologik testlarning paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlarini tushuntiring.
3. Psixologik testlarning asosiy turlarini izohlang.
4. Intellekt testlari va shaxs testlari o'rtasidagi farqlar nimada?
5. Psixologik testlarni yaratish bosqichlarini sanab bering.
6. Test topshiriqlarini ishlab chiqishda qanday talablar qo'yiladi?
7. Validlik tushunchasi nima va uning qanday turlari mavjud?
8. Ishonchlilik tushunchasini izohlang.
9. Testlarni standartlashtirish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
10. Normallashtirish nima va uning ahamiyati nimada?
11. Rerezentativ tanlanma deganda nima tushuniladi?
12. Psixologik testlarni adaptatsiya qilishning asosiy tamoyillari qanday?
13. Psixologik test natijalarini interpretatsiya qilish qanday amalga oshiriladi?
14. Psixometrik ko'rsatkichlarning amaliy ahamiyatini tushuntiring.
15. Psixologik testlarni o'tkazishda etik me'yorlarning o'rni qanday?
16. Ta'lim jarayonida psixologik testlardan qanday foydalaniladi?
17. Kasb tanlashda qo'llaniladigan testlarning vazifalari nimalardan iborat?
18. Kadrlar saralashda psixologik testlarning ahamiyatini tushuntiring.
19. Psixologik maslahat jarayonida testlardan foydalanishning afzalliklari qanday?
20. Zamonaviy kompyuterlashtirilgan test tizimlarining imkoniyatlarini izohlang.

V. O'QITISH VOSITALARI

1. Doska;
2. Flipchart qog'ozi;
3. Qog'oz A4 formatli yetarlicha;
4. Markerlar;
5. Tarqatma materiallar;
6. Multimediya to'plami (kompyuter, videoproektor, elektron doska, monitor).

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 23-iyulda “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-989-son Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-sentabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16-oktabrda “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son Qarori.
7. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26-fevralda “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son Qarori.

Asosiy adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018.
3. Davletshin M.G. Psixologiya va testologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Anastasi A., Urbina S. Psychological Testing. – New York: Pearson Education, 2017.
5. Cohen R.J., Swerdlik M.E. Psychological Testing and Assessment. – New York: McGraw-Hill Education, 2018.
6. Kaplan R.M., Saccuzzo D.P. Psychological Testing: Principles, Applications, and Issues. – Boston: Cengage Learning, 2017.
7. Aiken L.R. Psychological Testing and Assessment. – Boston: Allyn and Bacon, 2016.
8. Kline P. Handbook of Psychological Testing. – London: Routledge, 2015.
9. Rust J., Golombok S. Modern Psychometrics. – London: Routledge, 2014.
10. Nunnally J.C., Bernstein I.H. Psychometric Theory. – New York: McGraw-Hill, 2010.

Internet saytlar

1 <http://edu.uz>

2 <http://www.mitc.uz>

3 <http://lex.uz>

4 <http://ziyonet.uz>